BADIIY ASARDA LEKSIK-FRAZEOLOGIK DIALEKTIZMLAR VA MUALLIF NUTQI

Mahmudova Shahnoza Soliyevna,
tadqiqotchi
Samonurmahmudova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda shevaga xos so‘z va iboralar – leksik va frazeologik dialektizmlarning badiiy asarda qo‘llanilishi, muallif nutqi individualligini ta’minlashdagi o‘rni xususida so‘z yuritilgan. Bunda dialektizmlarni qo‘llash orqali xarakterkarga xos hududiy mansublik, milliy obrazlilik, ularning xalqona tasviri, ijobiy va salbiy ma’no ottenkalarini ifodalashdagi vazifasi tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: leksik, frazeologik dialektizmlar, limgvomadaniy kod, dialektal ohang, okkazionallik, ironiya.

Аннотация: В данном тезисе рассматривается использование диалектизмов – диалектных слов и фразеологизмов – в художественной литературе, а также их роль в обеспечении индивидуальности авторской речи. В работе анализируются функции диалектизмов в выражении территориальной принадлежности персонажей, национальной образности, их народном колорите, а также в передаче положительных и отрицательных смысловых оттенков.

Ключевые слова: лексические и фразеологические диалектизмы, лингвокультурный код, диалектный тон, окказиональность, ирония.

Abstract: This thezis examines the use of dialectal words and phraseological units (lexical and phraseologicalisms) in literary works, as well as their role in ensuring the individuality of the author's speech. The paper analyzes the functions of dialects in expressing the characters' territorial affiliation, national imagery, folk character representation, and in conveying positive and negative semantic shades.

Keywords: lexical and phraseological dialects, linguocultural code, dialect tone, occasionality, irony.

Badiiyat aql va hissiyot tutashuvi bilan poetik sezgining so‘z orqali namoyon bo‘lishidir. Bu jarayonda ko‘ngil va tafakkur tutashadi. “Badiiy asar, demakki, badiiy matn ham shaklan, ham mazmunan mutlaqo o‘ziga xos bo‘lgan murakkab va serqatlam estetik butunlik. Unda mazmun qanchalik muhim bo‘lsa, shakl ham shunchalik favqulotda ahamiyatlidir1. Uning muhtasham mahobati turfa so‘zlarning shakl va mazmun butunligidan iborat bo‘lar ekan, bunda dialektizmlarning o‘z shakli, ohangi, mazmuni va vazifasi bor.

Badiiy asarlarda qo‘llanilgan frazeologizmlar milliy madaniyatni o‘z prototiplari bilan aks ettiradi2. Ular yozuvchining mahorati bilan o‘z ohangini dialektal ritmda, mazmuni esa personajning ichki ruhiy holatini obrazli tarzda kuchaytirib tasvirlashda alohida ahamiyatga ega. Masalan, Adulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” asarida *“oyoq uzatmoq”* iborasidan ikkinchi (Unutmaysizmi.) va o‘n uchinchi (Eson bo‘lsaq, ko‘risharmiz.) fasllarida aynan Oftob oyimning holatiga izoh sifatida ironiya, ya‘ni iboraning teskari ma’nosidan foydalangan. Dastlabki qo‘llashda yozuvchi Qutidorning Otabekni Toshkandga yuborish fikri, qizining ahvolidan xavotir olishini tasvirlagan bo‘lsa (*Bu so‘z Oftob oyimni bir oz o‘ylatib qo‘ydi. Lekin hali ham* ***oyoq uzatmag‘an edi.*** *(ko‘ngli joyiga tushmagan)* [O‘. k., 148-b.]), ikkinchisida Oftob oyimning qizini Toshkentda qoldirib ketayotganida, Zaynab bilan kundoshlik mojarosidan xavotirlangan holatini badiiy va tabiiy tarzda tasvirlash uchun qo‘llaydi, ya‘ni bu ironik frazeologik dialektizm asarda faqat Oftob oyim uchun tanlangan. Romanda iboraning izohi shunday keltirilgan: “Oyoq uzatmoq (yoki cho‘zmoq) – ko‘ngli tinchimoq, g‘am-tashvishdan xoli bo‘lmoq” [O‘.k.,148-b.]

1 Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан нашриёти, 2008 й, 149-бет
2 Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. –Toshkent: Tafakkur avlodi nashriyoti, 2020-y. 139-b.

*Oftob oyim hamon **oyog‘ uzatmadi,** (ko‘ngli xotirjam emas edi)qizig‘a yalinib ko‘rdi.* [O‘. k., 349-b.]

“Ko‘ngli joyiga tushmoq” iborasini Tog‘ay Murod ham bir nechta qissalarida xalq shevasiga xoslab sinonimlik munosabatida quyidagicha qo‘llagan:

*Ana shunda Qoplon **yelkasidan nafas oldi.*** (chuqur nafas oldi, ko‘ngli joyiga tushdi) [O.ю.o., 514-б.]

Har ikki holatda ham bu okkozionallik yozuvchi badiiy nutqida xalqona ohangni ifodalaganligi bilan qo‘shimcha semaviy qiymatga ega.

Badiiy asarda “poetik so‘z o‘zi bilan xalqning ijtimoiy tajribasiga bog‘liq bo‘lgan ruhiy va emotsional assotsiatsiyalarni faollashtiradi”3. Bu ijtimoiylik dialektizmlarni matnda erkin qo‘llash, ular orqali xarakterlarni jonlantirish, ijtimoiylikni badiiylikka singdirish va dialektal madaniy kodlarni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Masalan: ***Bo‘g‘ozqisir*** *uy ichini kulgi bosdi.* [O‘.k.,319-b.] Uy ichida asosan xotin-xalaj jam bo‘lganligini ***bo‘g‘ozqisir*** qo‘shma so‘zi izohlagan, Qodiriy yashagan davrda ham bugun ham to‘y-marosimlarida ayollar davrasi alohida bo‘ladi. Bu gapda hamma baravariga kulganligini, o‘sha davraga xos muhit va kayfiyatni Qodiriy shu yo‘sindagi jumla bilan tugal tasvirlagan.

*Anzirat Biydi momoning **Tursunoy g‘uj-g‘ujni o‘shakchiligi** uchun yoqtirmasligini va hamisha uni mulzam qilib yurishini, bilardi.* [U.o.,55-b]

Bu misolda Tursunoyga nisbatan ishlatilgan *guj-guj* laqabi undagi sergaplikni; *o’shakchi* so’zi esa g’iybatchiligini, asarda yozuvchi ta’riflaganidek, “g‘iybat uning uchun suv o‘rnida”, ayolning xarakteriga xos salbiy sifatini nisbat berib qo‘llangan. Keyingi misol:

*Sag‘ir **sertamiz** bo‘ldi.* (betamiz so‘ziga antonim, ijobiy sifatlash, sezgir ma‘nosini ham bergan.) [O.ю.o., 501-б.] Keyingi gapda esa yozuvchi uning izohini quyidagicha keltiradi:

3 Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020.128-b.

Hayotda bo‘lmish ***ilkis qiliqlar***, ***iring gaplarni*** *darhol ilg‘ab oladi.* [O.ю.o., 501-б.] (bema’ni odatlar, salbiy xatti-harakatlar, yolg’on, bo’hton, mayda gaplar)

“T.D. Gachiyevning fikricha, olamning milliy obrazi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: milliy makon, turmush, til; milliy xarakter, milliy qalb; tafakkurning milliy xususiyati, olamni idrok qilish usuli, turmushga nazar, qadriyatlar ketma-ketligi. Har bir davr esa o‘z obrazlarini keltirib chiqaradi”4.

Sovchilar ***ohorli belqars*** *o‘rab ketdi.* [O.ю.o., 503-б.] (yangi belbog‘)

Normat etigini yechmay, yasama oyog‘ini sal bukib ***po‘stakning*** *ustiga yonboshladi-da nima* ***deyarini*** *bilmay, Biydi momo uzatgan choyni ho‘play boshladi.* [U.o., 135-b.]

Mazkur gapdagi dialektal leksik birlik *po‘stak* – qo‘y va echki terisining jun qismi saqlanib qolingan holda maxsus ishlov berilgan, ko‘rpacha o‘rnida to‘shaladigan buyumni bildirgan. Po‘stak ko‘rpacha ko‘proq tog‘li hududlarda va cho‘ponlar yashaydigan ovullarda ishlatilgan. Buning yana bir sababi tog‘li hududlarda paxta yetishtirish imkonsiz, urush va undan oldingi davrda hududlarda paxta taqchil va qimmat bo‘lgani bois ko’rpa va qishki issiq kiyim sifatida po‘stakdan foydalanilgan. Masalan, Navoiy viloyati Nurota tumanidagi Yangibino mahallasida Po’stak to‘pi guzari bo‘lib, qishloqning dastlabki shakllanishi bir to‘p-urug‘dan tarqalgan chorvadorlar bilan bog’liq. Qishloq ayollari qo‘y va echki terisini suzmada oshlab, isiriq suvida zararsizlantirib, undan ko‘rpacha sifatida foydalangan. Yozda teri tomoni, qishda junlik tarafi to‘shalgan. Maxsus ishlov berilganligi uchun hasharot qo‘nmaydi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning beshigi ustiga momolaridan qolgan teridan tayyorlangan po‘stakni yopishadi, ins-jinslar yo‘lamasin degan irim-sirimlar qilinadi. Qiziltepa tumanida (Mayizgaron, Hafqoriyon, Mo‘zado‘zon, Xartozo, Sobingaron va boshqa qishloqlarda)gi oilalarda xamir yoyish uchun to‘shaladigan surpani *po‘stak* deb atashadi. Qadimda aynan oshlangan qo‘y terisidan surpa tikilgani uchun shunday nomlashgan. Po‘stak ikki hududda boshqa-boshqa

4 Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. 128-b.

maqsad va ehtiyoj uchun ishlatilsa-da, u bilan bog‘liq qadriyatlar hamon yashab kelmoqda. Shu jihatdan bu dialektal atama xalqning ijtimoiy-madaniy turmush mashg‘uloti haqida lingvomadaniy dialektal kod hisoblanadi.

*Xizmatkorlar **qur bo‘lib** o‘tirib sabzi to‘g‘radi.* [Ю.м.ё.,337-б.]

Qur bo‘lib o‘tirmoq holatni ifodalovchi leksik birligi uzun davra qilib o‘tirmoq degan ma‘noda qo‘llanilgan. Bu birlik qo‘shnichilik, ahillik munosabatlari haqida xabar beruvchi limgvomadaniy kod ham bo‘la oladi. Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumanida hozir ham bu so‘z *“qur solmoq”*shaklida ishlatiladi. O‘tgan asrning 80–90- yillarida to‘ylar hovlilarda o‘tgan va to‘yga ko‘pchilik taklif etilgan, shu bois to‘y oshi katta-katta qozonlarda damlangan va to‘ydan bir kun oldin el-xeshlar, qo‘ni-qo‘shnilardan ko‘ngilli bo‘lib xizmatga kelgan erkaklar sabzi to‘g‘rashga yordam bergan. Bu odatlar hamjihatlik, totuvlik va oqibatning muhim belgisi bo‘lib, to‘y marosiminig qadriyati darajasida ahamiyatga ega bo‘lgan.

*Ko‘cha chetiga olov selini purkayotgan quyosh tig‘ida bir soatga yaqin turib qoldik. Qani endi loaqal bitta **ko‘lik** o‘tsa.* [M., 44-b.] Bu gapdagi *ko‘lik* leksik dialektizmi transportga nisbatan ishlatiladigan atama. Bugungi kunda ham Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumani qishloqlarida asosan keksa avlod vakillari tili, shevasida saqlanib qolgan.

Xulosa qilib aytganda lingvokulturologik aspektdan olib qaraganda leksik va frazeologik dialektizmlar orqali etnografik va madaniy kodlarni aniqlash, ularning nafaqat asar tili, balki uning g‘oyaviyligi, ma’noviy qatlamlarini belgilash va xarakterlarni tafsiflash mumkin. Badiiy asarlarda muallif nutqida qo‘llangan bunday dialektizmlar muayyan hududning urf-odatlari, ro‘zg‘or anjomlari, turmush mashg‘ulotlari, kiyinish madaniyatiga oid adabiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar/ roman / Adabiy barhayot asarlar. Nashrga tayyorlovchi: Xondamir Qodiriy. –Toshkent.: Oltin qalam, 2024.

Тоғай Мурод. Танланган асарлар: Романлар, қиссалар/Юлдузлар мангу ёнади. – Т.: Sharq, 2018.

Тоғай Мурод. Танланган асарлар: Романлар, қиссалар/Ойдинда юрган одамлар. – Т.: Sharq, 2018.

Тоғай Мурод. Танланган асарлар: Романлар, қиссалар/Момо ер қўшиғи. – Т.: Sharq, 2018.

Nazar Eshonqul. Urush odamlari. Toshkent. Nurli dunyo, 2024.

Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан нашриёти, 2008 й, 149-бет

Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. –Toshkent: Tafakkur avlodi nashriyoti, 2020-y. 139-b.

Йўлдошем М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. Тошкент: Фан, 2007.